

## “Devoni Hikmat” Asarining Tarixiy Leksikani O‘Rganishdaga Ahamiyati Masalasiga Doir

Berdiev Xusan Xolnazarovich<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Maqolada Sulton ul-orifin – Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari lingvistik xususiyatlari haqida ilmiy manbalar, darslik va qo’llanmalarda bayon etilgan ayrim fikrlar tahlil etiladi. “Devoni hikmat”ning nashrlari, ulardagi lingvistik farqlar ko’rsatib o’tiladi va tarixiy leksikani o’rganishda asarning o’ziga xos o’rnini masalasida amalga oshiriladigan ishlar xususida so’z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** hikmatlar, tarixiy leksika, nashrlar, tekstologik xususiyatlar.

Mavzu bayoniga o’tishdan avval ayrim masalalarga munosabat bildirish o’rinli ko’rinadi. Hikmatlarning g’oyaviy-falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy, adabiy-estetik tomonlari haqida qator tadqiqotlar yaratilayotgan ekan, shubhasiz, til xususiyati ham tadqiq etilmog’i lozim. Zero, hozirgi paytda bu masala muhim bo’lib, nashrlardagi noaniqliklar, tekistologik xatolar kabilarga barham berishga ham asos bo’ladi.

Ahmad Yassaviy, tadqiqotchilar e’tirof etganlaridek, turkiy tasavvuf adabiyotining asoschisi. U ma’naviy komillikka doir g’oyalarni she’riy yo’lda bitilgan «Hikmatlar»ida bayon etgan. Manbalarning guvohlik berishicha, Xoja Ahmad Yassaviy nafaqat tariqat asoschisi – piri murshid sifatida, balki yirik hikmatgo‘y shoir sifatida ham keng miqyosda tanilgan. Chunonchi, turk olimi M.F.Kupruluzodaning e’tirofiga ko’ra, «Ahmad Yassaviy haqidagi manqabalar (ma’lumotlar – X.B.) turklarning uch yirik jug’rofiy mintaqasiga yoyilgan. Turkiston va Qozog’iston (markaziy va sharqiy mintaqa), Edilbo‘yi (shimoliy mintaqa), Anadulu va Rumeli (g’arbiy mintaqa) hisoblanadi (1, 26). Adabiyotshunos I. Haqqulov tadqiqotlarida Ahmad Yassaviy «Devoni hikmat» kitobi bilan jahonning bir necha mamlakatlarida ma’lum va mashhur bo’lgani haqida ma’lumotlar berilgan (2, 3). Ma’lumki, istiqlol yillarda buyuk bobokalonimiz merosini xalqqa etkazish borasida quvonarli ishlar amalga oshirildi-hikmatlarning iste’moldagi (imlodagi) nashrlari e’lon qilindi. Bu boradagi ijobjiy harakatlar yana-da rivojlantirilishi lozim. Qilinajak ishlardan biri esa nashrlardagi bahstalab masalalarga barham berish bilan bog‘liqdir. Bular hikmatlar tilida turli elementlarning ko’zga tashlanishi, ularda fonetik, orfografik, leksik, grammatic chalkashliklarning uchrashida ko’rinadi.

Bunday holatlarni tuzatish uchun nashrlarda uchraydigan quyidagi kabi tekstologik tekshirishlarga muhtoj o’rirlarni jiddiy tekshirish va matn mazmuniga mos tarzda leksik birliklarning aniqligiga erishish lozim bo’ladi. Qiylolang:

*Qul hoja Ahmad, qulluq ichra sobit bo ‘lsam,*

*Zokir bo ‘lib, zikrin aytib, rabbim, desam* (3, 1991, 95-bet)

*Qul hoja Ahmad, qulluq ichra zabit bo ‘lsam,*

*Zikr aytib, zokir bo ‘lub, rabbi, desam* (4, 1992, 156-bet)

Ko’rinadiki, bunda ikkinchi misra tarkibidagi so’z almashishlari (*zokir bo ‘lib, zikrin aytib – zikr aytib, zokir bo ‘lub* kabilar) bilan bir qatorda, birinchi misradagi «sabit» so’zi o’rnida «zabit» - «zabt etuvchi» ma’nosini anglatuvchi so’z qo’llangan. Ma’lumki, tariqat ahli – «zokir»lar faoliyatiga «zabit»lik emas, «sabit»lik xosdir.

<sup>1</sup> Filologiya fanlari boyicha falsafa doktori, dotsent, O’zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti, O’zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, Samarqand



Til va adabiyotimiz tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutadigan asarlar sirasida “Devoni hikmat”ning o‘rni masalasida fanda allaqachonlar fikrlar bildirilgan. O‘zbek adabiyotshunosligida XX asr boshlarida yaratilgan ba’zi tadqiqotlarda mazkur masala xususida ham ilmiy ahamiyatga molik fikrlar bayon qilingan (5, 33-38). Ammo bu kuzatishlar hikmatgo‘y shoirlar va ular merosini o‘rganish borasidagi dastlabki ma’lumotlardan iborat edi. To‘g‘ri, shuning uchun bo‘lsa kerak, ba’zi ijodkorlar shaxsi haqida birmuncha taxminiy mulohaza ham bildirib o‘tilgan (6, 36-37). Shu o‘rinda aytish joizki, yaqin yillarda olib borilgan tadqiqotlarda bu taxminning haqiqatda to‘g‘ri ekani e’tirof etildi (7, 17).

Adabiy tilining eng qadimgi davrdan hozirgacha bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari tarixiy-qiyosiy asosda tadrijiy tahlil etilgan manbalarda Ahmad Yassaviy merosining til rivojida tutgan o‘rni Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib (va b.) so‘z san’atkorlari ijodi bilan birgalikda tilga olinishi bejiz emas. To‘g‘ri, “Devoni hikmat”ga mutafakkir izdoshlarining ijod namunalari ham kiritilgan. Natijada, hikmatlar tili va uslubida ma’lum o‘zgarishlar hosil bo‘lgan.

Adabiy tilning xalq tili boyliklari asosida shakllanishida “Devoni hikmat”ning o‘rni muhimligi turkiy tillar tasnifi borsidagi tadqiqotlarda ham o‘z aksini topgan. CHunonchi, N.A. Baskakov tasnifida turk tillarining G‘arbiy xun tarmog‘i qarluq tillari guruhiga kiritiladi va qarluq-xorazm guruhini tashkil etuvchi qoraxoniy-xorazm tili masalasida Ahmad Yassaviy merosi alohida qayd etiladi [8, 24]. Asarning tili haqida bildirilgan fikrlar turlichadir. Jumladan, A. K. Borovkov Yassaviy hikmatlari qarluq-uyg‘ur tilida yozilgan bo‘lib, «Qutadg‘u bilig» tiliga yaqinlashmaydi, deb ta’kidlasa, G. Vamberi hikmatlar tili Qo‘qon xonligi dialektiga asoslangan, deydi. Olim Ko‘prulizoda Ahmad Yassaviyni arg‘u urug‘ining vakili deb, uning tilida qisman o‘g‘uz tili ta’siri bor va hikmatlar tili «Qutadg‘u bilig» asariga yaqin turuvchi til deb ko‘rsatadi [8, 81].

Prof.I.Haqqul Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida keltirilgan quyidagi she’ri parcha haqida to‘xtalib, hikmatlarning til xususiyati haqida turli shubha-gumonga boraverish unchalik ham to‘g‘ri emasligini aytadi:

*Tiki turg ‘on to ‘badur,*

*Borganlarni yutadur,*

*Borganlar kelmas bo ‘ldi,*

*Magar manzil andadur» (9, 27).*

Shuningdek, akademik B.Valixo‘jayev Navoiy mazkur to‘rtlikni keltirar ekan, o‘sha davrdagi nusxasini misol keltirish orqali hikmat mavzui, uning shakliy va til xususiyatlarini o‘rganishda bebahol badiiy hujjat qoldirganini ta’kidlaydi (10, 80).

Manbalada ko‘rsatilganidek, «Devoni hikmat»da qo‘llangan leksik birliklarni, asosiy lug‘aviy qatlarni o‘sha davr turkiy tilda mavjud bo‘lgan so‘z va iboralar tashkil qiladi. *Kəşul, söz, qatışq*‘(q), *yaxshi, yaman, til, bash, qo‘l, kəz, tiz(tizza)*, *səhək, yalg‘an, yash, kək, qulaq, ulush, yo‘l, bag‘r, qızıl, ulug‘, qayu, ay, uchmaq, idi* kabilalar shular jumlasidan. «Hikmat»larda ishlatilgan son va fe’l turkumiga xos barcha so‘zlar hozirgi turkiy tillar, shu jumladan, o‘zbek tilida ham mavjud. Eski turkiy adabiy til uchun xarakterli bo‘lgan *qapuq, qamug‘, elig, yozuq, eran, sotqu, arig‘, yavuq* kabi so‘zlar nisbatan kam uchraydi. «Devoni hikmat» leksikasining o‘ziga xos xususiyati unda arab tiliga xos so‘z va istilohlarning juda ko‘p qo‘llanishidir. Islom aqidalari, musulmonlikning qonun-qoidalari, diniy-falsafiy qarashlarni targ‘ib qilish maqsadida *tariqat, sunnat, shariat, nafs, murshid, qudrat, imon, rahmon, do‘zax, iloh, zikr, jannat, xudo, kofir, mo‘min, ummat* kabi so‘zlar qayta-qayta takrorlangan. *Piri komil, piri zabardast, amri ma‘ruf, ro‘zi mahshar, biru bor, tarbiyati tan, Musasifat, rizqi naqis, daftari soniy, qalu bala* singari arab, arab-fors iboralar ko‘plab uchraydi.

«Devoni hikmat»da qo‘llangan eski turkiy leksik qatlarni, bir qator fonetik va morfologik xususiyatlar bu asarning qarluq-chigil-uyg‘ur va o‘g‘uz-qipchoq tillari negizida yaratilganligini ko‘rsatadi. Asarda ishlatilgan ko‘pgina fors-tojik tiliga xos so‘z va iboralar, grammatic shakllar ham bu fikrni tasdiqlaydi (11, 37; 69).



Asarning tarixiy leksikani o'rganishdagi ahamiyatini chuqur tahlil etish bilan bog'liq muammo shundaki, hikmatlarda qo'llangan so'zlarning imlosi, qo'shimchalarining turli shakllarda uchrashi, ayrim so'zlar qo'llanishidagi leksik-semantik ko'lam va matn mazmuni muvofiqligi masalasi hal etilmog'i lozim. «Hikmatlar»ning 1991, 1992-yillarda chop etilgan variantlarini ko'zdan kechirganimizda ayrim fonetik, orfografik, leksik, grammatik, stilistik farqlar kuzatiladi. Bular, asosan, quyidagilar:

1. Fonetik sathda: 1) unli va undosh tovushlarning har xil yozilishi: **o-a, i-e**: / *oning-aning, tasbih-tasbeh* /; **p-b**: / *topti-tobdi* /; **ya-yo, yu-yu**: / *suya-suyor, teyu-teyu* /.
2. Kelishik va ayrim so'z turkumlari qo'shimchalarining noto'g'ri qo'llanishi: dorga-dorda, o'lim-ulum;

Bunday fonetik chalkashliklar, hatto, bir bayt doirasida ham uchraydi:

*So fi bo 'libon, sof bo 'l, ey bandai Alloh.*

*So fi bo 'lib, ul yolon dami o 'ynasa behroq* (1992, 12-bet).

3. Leksik sathda: *tansuq, idlanmas, idi, istayu* (1992, 10-hikmat) (va b.) kabilar. Tadqiqotchilar aytmoqchi, qaysi tilga mansubligi munozarali bo'lgan so'zlar ham uchraydi. Masalan, oldinroq keltirganimiz – misralardagi: «sobit» va «zobit» so'zlarining qo'llanishi kabi.
4. Sintaktik sathda: Bunday holatlar Qur'oni Karim oyatlari va Hadisi shariflardan keltirilgan parchalarda ham uchraydi. Qiyoslang:

1991- yil nashrida:

*Avval alast birabbikum dedi xudo,*

*Qolu balo debon ruhlar qildi sado.*

*Yig 'lab kelduk ishqingga jumla gado,*

*Lutf aylasang yuz ming osiy xandon erur.*

1992- yil nashrida:

*«Alast-bi-rabbikum» dedi xudo,*

*Qolu balo debon ruhlar qildi sado.*

*Yig 'lab kelduk ishqingga jumla gado,*

*Lutf aylasang yuz ming osiy xandon erur.*

Xullas, insoniyatning mavjudligi obyektiv borliq va undagi moddiy, ma'naviy-ma'rifiy olam bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har qanday hodisa, eng avvalo, til leksik sistemasida o'z aksini topadi. Shubhasiz, bu jarayon asarlarda ham ifodasini topadi. Albatta, yuqorida qayd etilganlar, davrlar o'tishi jarayonida bo'ladigan o'zgarishlarning xarakter-xususiyatidan kelib chiqib, «Hikmatlar» variantlarini qiyoslab o'rganish va ular ustida jiddiy tekstologik tekshirishlar olib borish lozimligini ko'rsatadi. Bu – birinchidan.

Ikkinchidan, «Hikmatlar»da muayyan darajada bo'lsa-da, hozirgi o'quvchiga notanish leksik birliklar mavjudki, ularni izohlab, lug'at tarzida nashrga ilova qilish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyatimizning quadratli ustunlaridan biri Xoja Ahmad Yassaviy merosini keyingi avlodlarga to'laqonli ravishda etkazish, tarixiy leksikani o'rganishda asarning o'ziga xos o'rnini belgilash borasidagi tadqiqotlar bugungi turkiy tilshunoslik oldidagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

## Adabiyotlar

1. Kuprulu F. Turk adabiyoti ilk mutasavvuflari // Sirli olam. – 1997. – № 2.
2. Haqqulov I. She'riyat – ruhiy munosabat. – Toshkent, 1989.



3. Yassaviy A. Hikmatlar (Nashrga tayyorlovchi, so‘z boshi va izohlar muallifi I.Haqqulov). – Toshkent, 1991.
4. Yassaviy A. Devoni hikmat (Nashrga tayyorlovchi – Rasulmuhammad Ashurboy o‘g‘li Abdushukurov, mas’ul muharrir – Mahmud Hasaniy). – Toshkent, 1992.
5. Fitrat A. Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar // Yassaviy kim edi? – T., 1994.
6. Fitrat A. O‘scha asar.
7. Abdullayev M. Ubaydiy hayoti va faoliyati: fil.fan.nomz. avtoreferati. – T., 2000.
8. Tursunov U., O‘rinboyev B., Aliyev A. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
9. Haqqulov I. She’riyat – ruhiy munosabat. – T., 1989.
10. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. – T., 1993.
11. Muxtorov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent, 1995.

